



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani, O'zbekistonko'chasi 7-uy. tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@exat.uz

2023 - yil 10 - noyabr

VI-64-119-8-118-K/23

Uzun tuman hokimligi

### Uzun tumanidagi "Tolto'g'ay" mahallasi hududiy chegarasini o'zgartirish va yangi mahalla tashkil etish to'g'risida;

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi "Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 48-son qaroriga asosan "Tolto'g'ay" mahalla fuqarolar yig'inining mahalla hududiy chegarasini o'zgartirish va yangi mahalla tashkil etish to'g'risidagi takliflariga asosan xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi, **qaror qiladi:**

1. Tumandagi Tolto'g'ay mahallasi hududiy chegarasini o'zgartirish va yangi mahalla tashkil etish to'g'risidagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2023-yil 19-apreldagi 13-01/46-sonli bayoni, viloyat komissiyasining 2023-yil 29-avgustdagi 18-07/182-sonli bayoni, Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi huzuridagi Kadastr Agentligi direktorining o'rinbosari, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish ekspert komissiyasining 2023-yil 19-sentabrdagi 1-14/168-sonli ekspert xulosasi hamda Tolto'g'ay mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan berilgan takliflar ma'qullansin.

2. Tumandagi "Tolto'g'ay" mahallasi hududiy chegarasini qayta ko'rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla ro'yxati hamda uning nomi 1-ilovaga, yangi tashkil etilayotgan mahalla chegaralari va tavsifi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari soni 52 ta deb yuritilsin.

4. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (X.Rasulov), Uzun tuman hokimligi:

Yangi tashkil etilgan mahallaning to'liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratsin;

Hududlarga o'zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig'ini aholisi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (B.Xasanov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (B.Baratov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun zarur mablag'larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

6.Tuman Ichki ishlar bo'limi (O.Ergashev) yangi tashkil etilayotgan mahallada yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo'l belgilariga tegishli o'zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

7.Tuman Statistika bo'limi (M.Xayrullayev), tuman Qurilish va kommunal bo'limi (S.Qurbonaliyev) tuman hokimligi bilan birgalikda yangi tashkil etilayotgan mahallalarni, davlat ro'yxatidan o'tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin

8.“Bobotog' tongi” gazetasi tahririyati (I.Bobokolonov), tuman hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (T.Ataxanov) mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishini ta'minlasin.

9. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan so'ng kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi S.Tashanov va Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i X.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

**Sessiya raisi**



**B.Toshboyev**

Xalq deputatlari Uzun tuman  
Kengashining  
2023-yil 10-noyabrdagi  
VI-64-119-8-118-K/23-son  
qaroriga  
1-ilova

**Uzun tumanidagi “Tolto‘g‘ay” mahallasining hududiy chegaralarini  
qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahallaning nomlari**

<b>T/r</b>	<b>Bo‘linadigan mahallaning nomi</b>	<b>Bo‘lish hisobiga yangi tashkil etilgan mahallalar nomi</b>	<b>Joylashgan sektor hududi</b>
1.	Tolto‘g‘ay	Tolto‘g‘ay mahallasi	3-sektor
		“Yuksalish” mahallasi	3-sektor

Xalq deputatlari Uzun tuman  
Kengashining  
2023-yil 10-noyabrdagi  
VI-64-119-8-118-K/23-son  
qaroriga  
2-ilova

